



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 7 - iyul

VI-63-127-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumanida 2023-yilda shakllantirilgan mehnat balansi va bandlik dasturi ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021-yil 14-dekabr kuni "Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijadorligi hamda kelgusida ustuvor vazifalar va hokim yordamchilari faoliyatini tashkil qilish, 2023-yilda mehnat balansi va bandlik dasturini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida" kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 55-sonli bayonida hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirishda foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ishga solish orqali kelgusi yilda xizmat sohasini kamida 50 foiz o'sishni ta'minlash, bu borada tarmoq rahbarlari va hokimlar mas'uliyatini oshirish hamda kelgusi yil uchun islohotlarni yuqori sur'atda amalga oshirishga sharoit yaratish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mahalliy hokimiyat vakillari organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya tomonidan Davlat rahbarining videoselektor davomida topshiriqlari ijrosini sifatli ta'minlash maqsadida tumanda yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni o'rganish, mas'ullar hisobotlarini tinglash va tegishli qaror qabul qilish vazifalari yuklatilgan.

Angor tumanida yanvar-aprel oylari rejasi 10579 ta ish o'rni bo'lib amalda 12850 taga bajarilgan (121.5%) bo'lsada, Davlat soliq boshqarmasi ishchi-xodimlar bazalaridagi ma'lumotlar bilan solishtirilganda 6994 ta yangi ish o'rinlari yaratilganligi va prognoz ko'rsatkichi 66.1 foizga bajarilgan.

Sohalar kesimida:

- Investitsiya loyihalari yanvar-aprel oylari rejasi 42 ta bo'lib, amalda 102 taga bajarilgan (242.9%) bo'lsa-da, Davlat soliq boshqarmasi ishchi-xodimlar bazalaridagi ma'lumotlar bilan solishtirilganda 102 ta yangi ish o'rinlari yaratilganligi va prognoz ko'rsatkichi 40 foizga bajarilgan;

- Xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik yanvar-aprel oylari rejasi 935 ta bo'lib,

amalda 1562 taga bajarilgan (167.1%) bo'lsa-da, Davlat soliq boshqarmasi ishchi-xodimlar bazalaridagi ma'lumotlar bilan solishtirilganda 1446 ta yangi ish o'rinlari yaratilganligi va prognoz ko'rsatkichi 154 foizga bajarilgan;

- Qishloq xo'jaligi sohasi yanvar-aprel oylari rejasi 9566 ta bo'lib, amalda 11013 taga bajarilgan (115.1%) bo'lsa-da, Davlat soliq boshqarmasi ishchi-xodimlar bazalaridagi ma'lumotlar bilan solishtirilganda 5358 ta yangi ish o'rinlari yaratilganligi va prognoz ko'rsatkichi 56 foizga bajarilgan;

Qurilish sohasi yanvar-aprel rejasi 36 ta bo'lib, amalda 173 taga bajarilgan (480.6%) bo'lsa-da, Davlat soliq boshqarmasi ishchi-xodimlar bazalaridagi ma'lumotlar bilan solishtirilganda 173 ta yangi ish o'rinlari yaratilganligi va prognoz ko'rsatkichi 480.6 foizga bajarilgan.

Kambag'allikni qisqartirish va bandligiga ko'maklashish bo'limi 1-may holatiga 981 nafar fuqarolar murojaat qilgan bo'lib, shundan 586 nafarini ayollar, 360 nafarini 18-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etgan.

Kambag'allikni qisqartirish va bandligiga ko'maklashish bo'limiga jami 981 nafar fuqarolar ish izlovchi sifatida ro'yxatga olinib, ularning 325 nafari tumandagi korxonalar va tashkilotlarga yo'llanma orqali ishga joylashtirildi.

Ish bilan ta'minlangan fuqarolarning 168 nafarini ayollar va 103 nafarini yoshlar tashkil etadi.

980 nafar fuqarolarni ish bilan band qilish bo'yicha belgilangan yillik reja 33 foizga bajarilgan. Maqbul ish bo'lmaganligi sababli 254 nafari ishsiz deb e'tirof etilib qayta kasbga tayyorlashga yuborilgan.

Kvotalangan ish o'rinlariga ishga joylashtirish bo'yicha 2023-yil uchun Angor tuman hokimining 2022-yil 19-sentabrdagi 433-8-109-Q/22-sonli qaroriga asosan tumanda faoliyat ko'rsatayotgan 70 ta korxonalar va tashkilotlarda jami 160 ta kvotalangan ish joylari zaxiralangan bo'lib, amalda 47 nafar (shundan, 19 nafari ayollar, 18 nafari yoshlar) ijtimoiy himoyaga muhtoj ish bilan band bo'lmagan fuqarolar ushbu kvotalangan ish o'rinlariga joylashtirildi.

Bu natija rejaga nisbatan 29 foizni tashkil etgan. Ish bilan band bo'lmagan fuqarolar, qurolli kuchlar saflaridan zaxiraga bo'shatilganlar, tumandagi band bo'lmagan xotin-qizlar va jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan fuqarolarni ishga joylashtirish maqsadida 2023-yil yanvar-aprel oylarida 4 marta mehnat yarmarkalari o'tkazilgan. Ushbu tadbirida jami 192 ta korxonalar va tashkilotlar o'zlaridagi 718 ta bo'sh (vakant) ish o'rinlari bilan ishtirok etdilar. Tadbirga jami 296 nafar fuqarolar (ulardan, 95 nafari yoshlar va 135 nafari ayollar) jalb qilindi. Tadbirda ishtirok etgan band bo'lmagan fuqarolarning 156 nafari yoki 52.7 foizi ishga joylashtirildi, 140 nafar fuqarolarga tushuntirishlar va maslahatlar berilgan.

Joriy yilning o'tgan davrida mehnat bozorlarida ish topa olmagan 631 nafar ishsiz fuqarolar Angor tuman "Ishga marhamat" Monomarkazi va Termiz arxitektura va qurilish kolleji, tikuvchilik, sartaoshlik, payvandchi, kran mashinisti, elektrik, kosmetolog, oshpaz, qandolatchi, chilangar, tokar, frezerchi yo'nalishlari bo'yicha o'qitilib, shundan 40 nafar fuqarolarga stipendiya Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hisobidan 91.2 mln. so'm miqdorda stipendiyalar to'lab berilgan.

2023-yil yanvar-may oylarida haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilinganlar jami 83 nafar fuqarolar jalb qilingan bo'lib, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hisobidan 82.8 mln. so'm miqdorda ishlagan ish haqqi to'lab berilgan.

Angor tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i U.Qosimovning hisoboti eshitilib, masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumanida 2023-yil 5-oyi mobaynida yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda Bandlik dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Angor tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i U.Qosimovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari, tuman tashkilot va korxonalar rahbarlariga:

- dasturda belgilangan barcha yo'nalishlarni ayniqsa qurilish, sog'liqni saqlash sohalari bo'yicha ijrosini ta'minlash hamda yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali aholi bandligini ta'minlash choralari ko'rish;

- xizmat ko'rsatish dasturida amalga oshirilishi belgilangan topshiriqlarning ijrosi hamda ushbu dasturga asosan amalga oshiriladigan loyihalarda yaratiladigan yangi ish o'rinlarini tashkil etsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Muratov), tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (U.Qosimov), sektor rahbarlari bilan birgalikda:

- tumanda 2023-yil 5 oyida doimiy yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlar ijrosi bo'yicha yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tez fursatda bartaraf etish choralari ko'rsinlar;

- dastur ijrosi bo'yicha belgilangan aholi bandligini ta'minlash prognoz ko'rsatkichlarining kunlik monitoring tizimini yuritish;

- tumanda ishsiz fuqarolarning ro'yxatini to'liq qaytadan mahallabay xatlovdan o'tkazsin hamda aniqlangan noaniqliklarni bartaraf qilish;

- xatlov natijasida aniqlangan ishsizlarni aniq yo‘nalishlar bo‘yicha bandligini ta‘minlash;
- migratsiya natijasida chet eldan qaytib kelgan fuqarolarni tizimli ravishda ishga joylashtirish;
- migratsiya bo‘yicha chet elda ishlash istagini bildirgan fuqarolarni zamonaviy kasblar hamda chet tillarga o‘qitish bo‘yicha tizimli ishlar tashkil etish;
- tumandagi yirik tashkilotlardagi bo‘sh ish o‘rinlariga ishsiz fuqarolarni jalb qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil qilish vazifalari topshirilsin.

4. Angor tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i (U.Qosimov)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 4-fevraldagi “Hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish ishlari samaradorligi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish to‘g‘risida”gi SQ-478-IV-sonli qarori ijrosi yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rganib borish maqsadida o‘n kun muddatda tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida 2023-yilda yaratilgan ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etish;

- tumandagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlari haqida ish izlovchilarga ma‘lumotlarni yetkazish maqsadida o‘quv muassasalari, bozorlarga hamda aholi ko‘p to‘planadigan joylarda doimiy ma‘lumotlari yangilanib turiladigan “Bo‘sh ish o‘rinlari” e‘lonlar burchaklarini tashkil qilish;

- mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari, hokim yordamchilari hamda mahallardagi xotin-qizlar faollariga mahalla va tuman hududidagi bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida ma‘lumotlarni har oy yangilangan holda yetkazib borish bo‘yicha tizimli ish tashkil qilish;

- ijtimoiy tarmoqlardagi asosiy a‘zolari tuman aholisi bo‘lgan guruh va kanallarga tumandagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida ma‘lumotlarni joylashtirib borish;

- tumanda tashkil etilgan kasbga o‘qitish markazlarida barcha yo‘nalishlarda o‘quvlarni tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov), bilan birgalikda tumanda yangi yaratilgan ish o‘rinlarini soliq bazasi bilan tahlil qilib, amalda yaratilgan ish o‘rinlari yuzasidan, shuningdek, o‘zini-o‘zi band qilish va ish o‘rinlarini legallashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha har oyning yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot taqdim etib borsinlar

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati va “Angor yog‘dusi” tuman gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga joylarda bandlikni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova), ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov